

**O‘ZBEKISTONDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLARNING
IQTISODIY-FALSAFIY ASOSLARI**

Muallif: Mamatkulov Eldor Saforovich

F.F.F.D (P.H.D) Termiz Davlat Universiteti Falsafa katta o'qituvchisi

Alimova Sitora Zulfiqor qizi

Termiz Davlat universiteti 2 kurs talabasi

sitoraalimova616@gmail.com +998 99 256 94 44

ANOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning iqtisodiy va falsafiy asoslari tahlil qilinadi. Islohotlarning nazariy manbalari, “O‘zbek modeli” va “Yangi O‘zbekiston” strategiyasi falsafiy nuqtai nazardan o‘rganilgan. Maqolada inson qadri, adolat, erkinlik, mulk daxlsizligi, raqamli iqtisodiyot, innovatsiya va barqaror rivojlanish g‘oyalari asosida O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi yoritilgan. Shuningdek, Forobiy, Adam Smit, Mirziyoyev kabi mutafakkirlarning qarashlari asosida islohotlarning gumanistik va ijtimoiy mazmuni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, islohotlar, iqtisodiy falsafa, Yangi O‘zbekiston, inson qadri, adolat, erkinlik, mulk, ma’naviyat, innovatsiya, raqamli iqtisodiyot, inson kapitali, barqaror rivojlanish, ijtimoiy adolat, “O‘zbek modeli”.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются экономические и философские основы реформ, проводимых в Узбекистане. Рассмотрены теоретические источники реформ, философское содержание «Узбекской модели» и стратегии «Новый Узбекистан». Особое внимание уделено ценности человека, справедливости, свободе, неприкосновенности собственности, цифровой экономике, инновациям и устойчивому развитию. На основе взглядов таких мыслителей, как Фараби, Адам Смит и Шавкат Мирзиёев, раскрывается гуманистическое и социальное содержание реформ.

Ключевые слова: Узбекистан, реформы, экономическая философия, Новый Узбекистан, ценность человека, справедливость, свобода, собственность, духовность, инновации, цифровая экономика, человеческий капитал, устойчивое развитие, социальная справедливость, «Узбекская модель».

ABSTRACT

This article analyzes the economic and philosophical foundations of the reforms being implemented in Uzbekistan. It examines the theoretical basis of reforms, the

philosophical content of the “Uzbek model,” and the “New Uzbekistan” strategy. Special attention is given to human value, justice, freedom, property rights, digital economy, innovation, and sustainable development. Based on the ideas of philosophers such as Al-Farabi, Adam Smith, and Shavkat Mirziyoyev, the article explores the humanistic and social essence of ongoing reforms.

Keywords: Uzbekistan, reforms, economic philosophy, New Uzbekistan, human value, justice, freedom, property, spirituality, innovation, digital economy, human capital, sustainable development, social justice, “Uzbek model”.

KIRISH

Bugungi kunda jahonda yuz berayotgan globallashuv, siyosiy va iqtisodiy integratsiya jarayonlari har bir davlatdan o‘z taraqqiyot modeliga ega bo‘lishni, yangilanish va modernizatsiyani talab qilmoqda. O‘zbekiston ham mustaqillikka erishganidan so‘ng, bozor iqtisodiyotiga asoslangan milliy rivojlanish yo‘lini tanladi. Ammo islohotlar faqat iqtisodiy tizimning o‘zgarishi emas, balki jamiyat tafakkuri, qadriyatlari va ma’naviy poydevorining yangilanishi bilan uzviy bog‘liq jarayondir. Shu sababli O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning faqat tashkiliy yoki moliyaviy jihatlarini emas, balki iqtisodiy-falsafiy asoslarini chuqur o‘rganish dolzarb ahamiyatga ega.

Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan “O‘zbek modelining besh tamoyili” dastlabki islohotlarning poydevori bo‘ldi. Ularning asosi – kuchli ijtimoiy siyosat, davlatning bosh islohotchi sifatidagi roli, qonun ustuvorligi, bosqichma-bosqichlik va mulkchilik shakllarining xilma-xilligini rivojlantirishdan iborat edi. Bu g‘oyalar iqtisodiy islohotlarning falsafiy mazmunini belgilab berdi.

Bugungi kunda esa Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasi shakllandi. Bu yangi bosqich iqtisodiyotni liberallashtirish, inson qadri va manfaatini islohotlarning markaziga qo‘yish, tadbirkorlik erkinligi, adolatli jamiyat, raqamli transformatsiya va ma’naviyatni uyg‘un rivojlantirishga asoslanmoqda. Prezident shunday deydi:

“Bizning bosh maqsadimiz – xalqimizning roziligiga erishish, inson qadri va sha’nini ulug‘lashdir.”¹

ISLOHOT TUSHUNCHASINING IQTISODIY VA FALSAFIY ASOSLARI

Islohot (arabcha “islāh” — tuzatish, yangilash, yaxshilash) tushunchasi tarixan jamiyat taraqqiyotini ta’minlashga qaratilgan ongli va maqsadli o‘zgarishlar sifatida

¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021.

izohlangan. Uning mazmuni ikki asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: iqtisodiy va falsafiy.

Iqtisodiy nuqtai nazardan islohot

Iqtisodiy islohot — bu mavjud iqtisodiy tizimni takomillashtirish, bozorda raqobatni kuchaytirish, mulkchilikni erkinlashtirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda inson farovonligini oshirishga qaratilgan amaliy o‘zgarishlar majmuidir.

“Hech bir islohot inson manfaatlariga zid bo‘lishi mumkin emas.”²

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan davlatlarda islohot quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Mulkchilikni davlatdan xususiy sektor qo‘liga o‘tkazish (xususiylashtirish);

Soliq, bank, bojxona tizimini isloh qilish;

Narxlar va valyuta bozorini liberallashtirish;

Tadbirkorlik erkinligi va investitsiya muhiti yaratish;

Monopoliyani cheklash va raqobatni rivojlantirish.

Adam Smit o‘zining “Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to‘g‘risida tadqiqot” asarida iqtisodiy rivojlanishning asosi sifatida “ko‘rinmas qo‘l”, ya‘ni erkin bozor mexanizmini ko‘rsatgan. Uning fikricha:

“Agar inson o‘z manfaatini ko‘zlasa, bu butun jamiyatning foydasiga xizmat qiladi.”³

Demak, iqtisodiy islohotlar nafaqat tizimni yangilaydi, balki insonning tashabbusi va mehnatini qadrlaydi.

Falsafiy nuqtai nazardan islohot

Falsafa islohotni inson tafakkurida ro‘y beradigan ma‘naviy yangilanish, qadriyatlarning qayta shakllanishi sifatida ko‘radi. Chunki iqtisodiy tizimni yangilashdan oldin inson tafakkuri, dunyoqarashi o‘zgarishi lozim.

Forobiy o‘zining “Fozil jamiyat” asarida shunday deydi:

“Jamiyatni isloh qilishdan avval insonni isloh qilish lozim, chunki inson tuzalmagan joyda jamiyat ham tuzulmaydi.”⁴

Falsafiy nuqtai nazardan islohot quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

Falsafiy kategoriya Mazmuni;

Inson Islohot markazida inson qadri, erkinligi va mas‘uliyati turadi

Qadriyat Adolat, mehnat, mulk, mas‘uliyat va ma‘naviyatni yangicha talqin qilish

Erkinlik Fikr, mulk va faoliyat erkinligi — haqiqiy taraqqiyot uchun zarur shart

Adolat Natijalar barcha qatlamlar uchun teng imkoniyat yaratishi kerak

Ma‘naviyat Islohot iqtisoddan tashqari inson ruhiy olamini boyitishi lozim

² Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqloq va taraqqiyot yo‘li. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 1992.

³ Smith A. The Wealth of Nations. – London: Methuen & Co., Ltd., 1776.

Karl Marks fikricha:

“Iqtisodiy munosabatlar o‘zgarasa, inson tafakkuri ham to‘liq yangilanmaydi.”

Ammo Immanuel Kant buning teskarisini aytadi:

“Inson aqli va tafakkuri o‘zgarsa – jamiyat ham o‘zgaradi.”

O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, islohotlar aynan shu ikki g‘oyaning uyg‘unlashuvi asosida ketmoqda: iqtisodiy mexanizm ham, inson tafakkuri ham yangilanmoqda.

Islohotlarning falsafiy mohiyati – uch asosiy tushuncha

Inson – bosh maqsad va vosita emas.

Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Islohot – inson manfaatlarini uchun xizmat qilishi kerak”.

Adolat – islohotning mezoni.

Ibn Sino fikricha, taraqqiyot bu “tabiat va jamiyatning uzluksiz takomillashuvidir.”

O‘ZBEKISTONDA ISLOHOTLARNING TARIXIY BOSQICHLARI

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon islohotlar bir tekisda emas, balki ketma-ket bosqichlarda, jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy sharoitlariga mos ravishda olib borildi. Har bir bosqichning o‘ziga xos falsafiy mazmuni, maqsadi va yo‘nalishi bo‘ldi.

1-bosqich (1991–2000 yillar): Mustaqillik va bozor iqtisodiyotiga o‘tish

Bu davrda asosiy vazifa – sobiq ittifoqdan qolgan markazlashgan reja iqtisodiyotidan voz kechib, mustaqil milliy iqtisodiyotni shakllantirish edi. Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan “O‘zbek modeli” besh tamoyil asosida amalga oshirildi:

“O‘zbek modeli” tamoyillari Mazmuni

Kuchli ijtimoiy siyosat aholining zaif qatlamlarini himoya qilish

Davlat – bosh islohotchi iqtisodiyotni nazoratli modernizatsiya qilish

Qonun ustuvorligi mustaqil davlat va qonunchilik yaratilishi

IJTIMOY ADOLAT VA BARQAROR RIVOJLANISH FALSAFASI

Ijtimoiy adolat – islohotlarning ma’naviy mezoni

Adolat tushunchasi qadimdan barcha falsafiy ta’limotlarda markaziy o‘rinda bo‘lgan. Platonning “Adolatli davlat”, Forobiyning “Fozil jamiyat”, Imom Moturidiy, Navoiy, Ahmad Yassaviy asarlarida adolat – jamiyat barqarorligining bosh mezoni sifatida talqin qilingan.

“Jamiyatni isloh qilishdan avval insonni isloh qilish lozim, chunki inson tuzalmagan joyda jamiyat ham tuzulmaydi.”⁵

⁵ Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1993.

“Adolat bo‘lmagan jamiyat – bu jamiyat emas, balki zulm tizimidir.”

Shavkat Mirziyoyev ham bu g‘oyani bugungi islohotlarning markaziga qo‘ydi:

“Jamiyatda adolat bo‘lsa – islohotlarga xalq ishonadi. Adolat bo‘lmasa – rivojlanish ham, taraqqiyot ham bo‘lmaydi.”

Adolatning amaliy ko‘rinishlari

Yo‘nalish Islohot mazmuni

Sud-huquq tizimi Sud mustaqilligi, sudya tanlovi, “Habeas corpus”, tergovdagi qiynoqlar taqiqlandi

Kambag‘allikni qisqartirish 11 % gacha kamaytirildi, mikro kreditlar, “Har bir oila – tadbirkor”

“O‘zbekiston iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini barqaror saqlab qolayotgan Markaziy Osiyodagi yetakchi davlatlardan biridir.”⁶

Barqaror rivojlanish – bu iqtisodiy o‘shish, ijtimoiy adolat va ekologik xavfsizlik uyg‘unligidir. Ushbu tushuncha 1987-yilda BMT tomonidan “Kelajak avlodlarga zarar yetkazmagan holda rivojlanish” deb ta’riflangan.

O‘zbekistonda barqaror rivojlanishning asosiy yo‘nalishlari:

Iqtisodiy barqarorlik: energetika, infratuzilma, sanoat va qishloq xo‘jaligi modernizatsiyasi.

Ijtimoiy barqarorlik: kambag‘allik qisqarishi, bandlik, ta’lim va tibbiyotga investitsiya.

Ekologik barqarorlik: yashil iqtisodiyot, suv tejash, Aralbo‘yi tiklash, qayta tiklanuvchi energiya.

“Yashil iqtisodiyot” va ekologik falsafa

Ekologiya bugungi islohotlarning ajralmas qismiga aylandi. Chunki iqtisodiy o‘shish tabiatga zarar yetkazsa – bu taraqqiyot emas. Shu sababli O‘zbekiston BMTning 2030 yilgacha bo‘lgan barqaror rivojlanish maqsadlarini (SDG) qabul qilgan.

Ekotizimdagi islohotlar;

Yo‘nalish Amalga oshirilgan ishlar

Aral fojiasi “Yashil makon” loyihasi, 200 ming gektarga saksovul ekildi

Energetika Quyosh va shamol elektrostansiyalari (Navoi, Buxoro, Qoraqalpog‘iston)

Suv resurslari Tomchilatib sug‘orish, suv hisoblagichlarini majburiy o‘rnatish

Qayta tiklanuvchi energiya 2030-yilgacha elektr energiyasining 40% ni qayta tiklanuvchi manbalardan olish maqsadi

Falsafiy xulosa

⁶ Jahon banki. Uzbekistan Economic Update. – Washington D.C., 2023.

Adolat – islohotlarning axloqiy ruhi;
Inson sha’ni – eng oliy qadriyat;
Barqaror rivojlanish – kelajak avlod uchun mas’uliyat;
Ekologiya – iqtisod va ma’naviyatning ajralmas qismi.

XULOSA

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar – bu nafaqat iqtisodiy tizimni yangilash, balki inson, jamiyat va davlat o‘rtasidagi munosabatlarga falsafiy yondashuv asosida ishlangan kompleks taraqqiyot modelidir.

Islohot tushunchasi ikki asosga – iqtisod va falsafaga tayanadi. Iqtisodiy jihatdan bu – bozor mexanizmlariga o‘tish, resurslardan samarali foydalanish; falsafiy jihatdan esa – tafakkur, qadriyat va adolatni yangilash demakdir.

“Yangi O‘zbekiston” strategiyasining mohiyati – inson qadri, adolat, ochiqlik va demokratik boshqaruvga asoslangan tamoyillarni davlat siyosatiga aylantirishdir.

Iqtisodiy islohotlarning natijalari:

Valyuta liberallasuvi, soliq yukining kamayishi;

Xorijiy investitsiyalar oqimi oshishi;

Tadbirkorlik subyektlari soni ikki barobarga ko‘payishi;

Kambag‘allik darajasi 2021 -yildagi 17 % dan 2023 yilda 11% gacha kamaygan (jahon banki ma’lumotlari)

YAIM o‘sishi surati 5,3-5,6% atrofida barqaror bolgan.

Islohotlarning falsafiy poydevori – inson qadri, mulk erkinligi, adolat va ma’naviy mas’uliyatdir. Forobiy, Ibn Sino, Navoiy, Adam Smit, Karl Marks, Hegel kabi mutafakkirlar fikrlari bilan uyg‘unlikda tahlil qilindi.

Innovatsiya va inson kapitali bugungi taraqqiyotning asosiy energiyasi sifatida shakllandi. “Raqamli O‘zbekiston – 2030”, IT Parklar, Prezident maktablari – bularning barchasi yangi tafakkur mevasidir.

Barqaror rivojlanish falsafasi – iqtisod, ijtimoiy adolat va ekologiyaning uyg‘unlashuvi sifatida talqin qilindi.

Umuman olganda, O‘zbekistonda islohotlarning iqtisodiy-falsafiy modeli quyidagicha ifodalanadi:

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”
2. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqloq va taraqqiyot yo‘li. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 1992.
3. Smith A. The Wealth of Nations. – London: Methuen & Co., Ltd., 1776.

4 Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1993.

5 Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1993.

6 Jahon banki. Uzbekistan Economic Update. – Washington D.C., 2023.